

MOLIYAVIY SAVODXONLIK

Sobirova Ozoda Rustamovna

University of science and technologies
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” fakulteti
2-bosqich 202-guruh talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10531853>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi orasida moliyaviy savodxonlik qay darajada rivojlanayotganligi, moliyaviy savodxonlik aholiga nima uchun kerakligi hamda uni amalda qo'llash haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tamiz.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, budjetlashtirish, moliyaviy boshqaruv, investitsiya, moliyaviy ko'nikmalar, daromadlar va xarajatlar.

Аннотация: В данной статье мы предоставим краткую информацию о том, насколько сегодня развивается финансовая грамотность среди населения развивающихся стран, зачем нужна финансовая грамотность населению и ее практическое применение.

Ключевые слова: финансовая грамотность, бюджетирование, финансовый менеджмент, инвестиции, финансовые навыки, доходы и расходы.

Abstract: In this article, we will provide brief information about the extent to which financial literacy is developing among the population of developing countries today, why financial literacy is needed by the population, and its practical application.

Key words: financial literacy, budgeting, financial management, investment, financial skills, income and expenses.

Moliyaviy savodxonlik rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yanada shaffof, sog'lom va barqaror iqtisodiyotga intilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir.

Moliyaviy savodxonlik o'zi nima? Xo'sh, moliyaviy savodxonlik o'zi bizga nima uchun kerak? Keling, avvalo, moliyaviy savodxonlik nima ekanligini bilib olamiz. Moliyaviy savodxonlik – shaxsiy moliyaviy boshqaruv, budjetlashtirish va investitsiyalarni o'z ichiga olgan turli xil moliyaviy ko'nikmalarni tushunish va samarali ishlatish qobiliyatidir. Moliyaviy savodxonlik – fuqaroning jamiyatda o'zi va oila a'zolarini moliyaviy farovonligini oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar yig'indisi hisoblanadi. Insonlarning moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lishi natijasida tadbirkorlikda omadsizlikka uchrashi, o'z moliyaviy resurslarini to'g'ri joylashtira olmasligi mumkin. Mavjud

moliyaviy bozor instrumentlaridan maqsadli foydalana olmasligi oqibatida esa kambag'allik yoki o'rtahol turmush darajasidan yuqori pog'onalarga chiqishi murakkablashadi. Insonlarda moliyaviy savodxonlikning yuqori darajada bo'lishi to'g'ri investitsiya qilishi, doimiy daromad manbaini shakllantirishda hamda keksalikda o'zining moddiy ehtiyojlarini qondirishi uchun aql bilan tartibli ish tutishni ta'minlaydi. Insonlarning qabul qilayotgan moliyaviy qarorlarini samaradorligini oshirish uchun aholi moliyaviy savodxonligi tizimini joriy etish zarur. Bu quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- ✓ aholi daromad manbalari tarkibining o'zgarishi;
- ✓ ko'p sonli xususiy tadbirkorlarning paydo bo'lishi;
- ✓ aholining uzoq muddatli jamg'armalarga va kredit olishga bo'lgan ehtiyojining keskin ortishi;
- ✓ shaxsiy jamg'armalarni investitsiyalash va moddiy aktivlarni boshqarish imkoniyatlarining kengayishi.

Quyidagi talablarga javob beruvchi shaxslarni moliyaviy savodxon deb hisoblasak bo'ladi:

- ✓ har oyda daromadlar va xarajatlarning hisobotini yuritadigan;
- ✓ ortiqcha qarz olmasdan o'rtacha hayot kechiradigan;
- ✓ o'zining istiqbolli moliyaviy rejasini hisoblab chiqqan;
- ✓ chuqur tahlillar asosida moliyaviy xizmatlar va mahsulotlarni xarid qilgan;
- ✓ moliya sohasida yetarli bilimlarga ega bo'lgan;

Hammamizga ma'lumki, har bir inson o'z turmush tarzini yaxshilashi, birlamchi va ikkilamchi ehtiyojlarini qondirishi uchun o'z qobiliyati va qiziqishlarida kelib chiqqan holda ma'lum bir mehnat turi bilan shug'ullanadi. Ya'ni shu mehnati evaziga u oylik daromadga ega bo'ladi. Daromad bo'lgan joyda albatta xarajatlar ham mavjud.

Ana shu ishlab topilgan daromadni xarajatlar uchun to'g'ri taqsimlash, uni qolgan qismini jamg'arish hamda ortgan qismini investitsiya qilishni bilish uchun bizga albatta moliyaviy savodxonlik kerak boladi. Inson va pul o'rtasida amalga oshiriladigan jarayonlarni to'g'ri boshqarishda insonning moliyaviy savodxonligi qanchalik yuqori bo'lsa, u o'zining daromadidan to'g'ri va unumli foydalana oladi va turmush tarzida asta-sekinlik bilan o'zi xoxlagan moliyaviy maqsadlarga erishadi. Daromadni to'g'ri taqsimlay olmaslik insonning daromadidan xarajatlarining oshib ketishiga olib keladi.

Insonlarning moliyaviy maqsadlariga erishishi uchun aholining daromad topish, sarflash, tejash, qarz va investitsiyalar bo'yicha savodxonlik darajasi yuqori bo'lishi muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda insonlarning daromadini to'g'ri taqsimlay olmasligi, moliyaviy savodxonligining pastligi oqibatida turli xildagi firibgarliklar hamda aldovlarga duch kelishi ko'payib bormoqda. Ana shunday vaziyatlarning yuzaga kelmasligi hamda firibgarliklarga qarshi kurashish chora-tadbiri sifatida aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish talab etiladi.

Moliyaviy savodxonlik tizimini joriy etish ayniqsa aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari uchun juda muhim hisoblanadi, chunki jamg'armalar va xarajatlar o'rtasidagi nisbatni optimallashtirish, o'zini shaxsiy biznesini amalga oshirish uchun mikrokreditlarni olish aholining farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jumladan aholining moliyaviy savodxonligini ham uning yoshlik chog'idan ilk fundamental asoslarini yaratish hamda ta'lim jarayonida ham moliyaviy savodxonlik haqida kerakli tushunchalarni berish bo'yicha turli xildagi seminar-treninglar tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir. Zero, jamiyat oiladan boshlanadi. Oilalarimizda, uy xo'jaliklarimizda o'z daromadi hamda jamg'armalarini to'g'ri taqsimlay olish jamiyat rivojlanishi uchun ijobiy xizmat qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. A.V.Vaxabov, SH.A.Toshmatov, N.X.Xaydarov. Moliyaviy savodxonlik asoslari. Toshkent -2013.
2. M.Q.Pardayev, B.A.Xasanov, J.I.Isroilov, M.E.Po'latov, O'T.Eshboyev, A.N.Xoliqulov. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Toshkent-2012.
3. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Toshkent-2019.
4. A.V.Vaxobov, T.S.Malikov. Moliya. Toshkent-2012.

